# YASHIL
## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№5 (2)



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*
*2-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G‘afforovna,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko‘nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA


TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI ........ 12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li

O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH ........ 16
Shermuxamedov Akmal Komiljonovich

РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ........ 21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи

ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH ........ 27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li

RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 32
Azlarova Aziza Axrorovna

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........ 36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI ........ 41
M.O. Yo'ldoshova

NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH ........ 45
Anvar Deberdiyev

SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI ........ 49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich

STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR ........ 55
Ishimova Mohinur Absalomovna

UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ........ 61
Zakirova Gulnoza Qudratovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna

TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA NOMOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........ 67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich

RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRSH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI ........ 73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........ 79
Yuldashev Akmal Kiyomovich

TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH ........ 83
Abirova Nargizabonu

YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI ........ 88
Turayev Abduvohid Kuldashevich


MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI....93
Artiqova O‘g‘iljon Zafar qizi

O‘ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI....101
Rustamov Zafar

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI....107
Metyakubov Azamat Djumanazarovich

BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG‘IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH....111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o‘g‘li

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ....116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.

XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI....121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna

TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH....127
Melibayev Sodir Adilovich

TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA’MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O‘RNI....135
Sheraliev Abbos Xolmuminovich

DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN....140
Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov

VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI....147
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich

O‘ZBEKISTON QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI....152
Shamsiddinov Ne’matjon Ashurali o‘g‘li

ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH....157
To‘ychiyeva Dilnoza Farxod qizi

ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI....162
Aripov Ulug‘bek Bahodirovich

UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O‘ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI....166
A’zamxo‘jayeva Nihola Sulaymon qizi

HUDUDIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA’SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)....171
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH....175
Bo‘taev O‘tkir Eshboevich

# KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

**Bo'taev O'tkir Eshboevich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi
Email: utkirbutayev7295@gmail.com
ORCID: 0009-0005-8023-4281

Annotatsiya. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali uning YAIMdagi ulushini oshirish, aholini ish bilan band etish, ularning real daromadlarini koʻpaytirish va turmush farovonligini yaxshilashda kreditlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash holatining tahlili umumiy holatda keltirib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kreditlash, bank tizimi modernizatsiyasi, Markaziy bank, tijorat banklari, universal banklar, ixtisoslashgan banklar.

Abstract. Through the further development of small business and private entrepreneurship in our country, it is important to increase its share in GDP, to employ the population, to increase their real income and to credit in improving the well-being of living. This article cites an analysis of the state of lending to small businesses and private businesses in a general case.

Key words: small business and private entrepreneurship, lending, banking system modernization, central bank, commercial banks, universal banks, specialized banks.

Аннотация. Кредитование играет важную роль в дальнейшем развитии малого бизнеса и частного предпринимательства в нашей стране, увеличивая их долю в ВВП, обеспечивая занятость населения, повышая его реальные доходы и улучшая благосостояние. В данной статье представлен общий анализ состояния кредитования малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес и частное предпринимательство, кредитование, модернизация банковской системы, центральный банк, коммерческие банки, универсальные банки, специализированные банки.

## KIRISH

Oʻzbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish hamda mavjud keng imkoniyatlardan samarali foydalanish darajasini oshirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarish jarayonida qilingan xarajatlarni tijorat banki kreditlari orqali moliyalashtirish imkoniyatlari kengayib bormoqda, ya'ni umumiy tarzda tijorat banklarining kichik biznes subyektlari faoliyatini kreditlashga e'tiborni kuchaytirayotganligi bilan izohlansa, boshqa tomondan, ishlab chiqarishda moliyaviy qoʻllab-quvvatlashda tijorat banklari kredit siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biriga aylanib borayotganligini koʻrsatmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi boʻlgan mulkdorlar sinfi, ya'ni oʻrta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab boʻlmaydi. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali uning YAIMdagi ulushini oshirish, aholini ish bilan band etish, ularning real daromadlarini koʻpaytirish va turmush farovonligini yaxshilashda kreditlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyalash aholini kambagʻallikdan xalos etish, mehnatga layoqatli, iqtidorli aholi qatlamini ishga jalb etish orqali oʻz gʻoya va yangiliklarini roʻyobga chiqarish bilan daromad olish manbalarini kengaytirish asosida turmush farovonligini yaxshilash, kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yoʻli bilan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy faol subyektlariga aylanishiga imkon beradi.

Islohotlarning bosqichma-bosqich oʻtkazilishi, demokratik va bozor islohotlari yoʻlidan izchil va ogʻishmay borish, kuchli ijtimoiy siyosat va aholining eng nochor qatlamlarini himoya qilish bilan birgalikda, Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan tub oʻzgarishlarning ijobiy natijalarini, ularning qoʻllab-quvvatlanishi va e'tirof etilishini oldindan belgilab berdi.

Yurtboshimiz 2020-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2021-yilga moʻljallangan eng muhim ustuvor yoʻnalishlarga bagʻishlangan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzalarida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kreditlar, xomashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur"ligini alohida taʼkidlab oʻtdilar.

Oʻtish iqtisodiyoti mamlakatlarida iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarini moliyaviy mablagʻlar bilan taʼminlash (kreditlash yoki mikrokreditlash) yangilik hisoblansada, undan aholining iqtisodiy faol qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, aholi bandligini taʼminlash maqsadlarida foydalanilmoqda. Shuningdek, soha rivojini taʼminlashda xalqaro yoki xorijiy moliyaviy tashkilotlar mablagʻlarini jalb qilishga qaratilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash holati boʻyicha xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqot olib borganlar. Ushbu tadqiqotlarda innovatsion faoliyatning mohiyati, uni boshqarishning nazariy asoslari hamda bank tizimida innovatsiyalarni joriy etishning amaliy jihatlari yoritilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mohiyati va mazmuni boʻyicha turli xil yondashuvlar mavjud. Schumpeter 2020-yilda innovatsiyalarni iqtisodiy oʻsishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida taʼriflaydi. Uning fikricha, innovatsiyalar yangi mahsulotlar, ishlab chiqarish usullari, bozorlar, xomashyo manbalari va tashkiliy tuzilmalarni joriy etish orqali iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlarni yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, Drucker 2019-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni innovatsion faoliyatning ajralmas qismi sifatida koʻrib chiqadi. U innovatsion faoliyatni resurslarni yangi imkoniyatlar yaratish uchun yoʻnaltirishga qaratilgan jarayon deb taʼriflaydi. Shuningdek, Drucker innovatsiyalarni boshqarishda tizimli yondashuv zarurligini taʼkidlaydi.

Bank sohasida innovatsion faoliyatning oʻziga xos xususiyatlari mavjud. Mishkin 2020-yilda bank innovatsiyalarini yangi moliyaviy instrumentlar, texnologiyalar va institutlarni joriy etish deb taʼriflaydi. U innovatsiyalarning bank xizmatlari sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va yangi daromad manbalarini yaratishdagi ahamiyatini taʼkidlaydi.

Oʻzbekistonda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash tizimida innovatsiyalarni rivojlantirish boʻyicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumaev 2022-yilda Oʻzbekiston bank tizimida innovatsion jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan. U mamlakatimizda bank innovatsiyalarini joriy etishning huquqiy bazasini takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish va bank mutaxassislarining innovatsion salohiyatini oshirish zarurligini taʼkidlaydi.

Abdullaeva 2023-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning dolzarb masalalarini tadqiq etgan. Uning fikricha, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish, jumladan, venchur moliyalashtirish va kraudfandingdan foydalanish bank innovatsiyalarini ragʻbatlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni takomillashtirishga qaratilgan jarayonlarni qiyosiy rivojlantirishga oid turli xil yondashuvlar umumlashtirilgan holda oʻrganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy hamda empirik kuzatuv usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qoʻllanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mikromoliyalash xususiyatlariga koʻra, yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan kichik biznes subyektlarining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish manbalari va miqdori bir muncha yuqoridir. Buni 1-jadval maʼlumotlaridan koʻrish mumkin. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalash va uni tashkil etish obyektiv iqtisodiy qonuniyatlarga asoslanishi lozim. Moliyalash tizimida moliyaviy munosabatlar bazis sifatida qatnashib, boshqa qismlar ustqurma hisoblanadi. Moliyaviy muassasalar esa tizimning boshqa qismi sifatida qatnashadi, yaʼni u barcha pul va kredit oqimlarini boshqarib turadi.

Moliyalash tizimi quyidagi toʻrtta qismni mujassamlashtira olgandagina yaxlit va obyektiv boʻladi:

- moliyaviy muassasalar va moliyaviy xizmatlar koʻrsatuvchi infratuzilmalar;
- moliyalash (kreditlash va mikrokreditlash) tartibi;
- moliyalash yoʻnalishlari va obyektlari;
- moliyalash manbalari va usullari.

Bu tarkibiy qismlar o‘zaro aloqadorlikka ega va bir butunlikni ifodalaydi. So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida mazkur sohaga tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar va ko‘rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi yildan-yilga o‘sib bormoqda.

Kichik biznes rivojlanishining iqtisodiy ahamiyatlaridan biri bu mamlakat yalpi ichki mahsulotini tarkib va miqdor jihatdan ko‘payishini ta’minlashdan iboratdir. Keyingi yillarda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida kichik biznesning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2014-yilda 61,9 foizni, 2024-yilda esa 54,3 foizni tashkil etganligini aytib o‘tish maqsadga muvofiq. Kichik biznesning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotdagi ulushining 2014–2024-yillardagi holati 1-rasmda keltirilgan (1-rasm).




1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotida 2014-2024-yillarda kichik biznesning ulushi, (%)[1]

Fikrimizcha, bunday holat tijorat banklarining iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa tijorat banklari va kichik biznes subyektlari bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, mazkur subyektlarni mikrokreditlash tizimini takomillashtirish lozimligini ko‘rsatadi.

Respublikamiz kichik subyektlarini kreditlash tartibini takomillashtirish hamda tarmoq subyektlarida ishlab chiqarishni yanada oshirish bo‘yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida quyidagi takliflar amaliyotga joriy etilgan.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirib, kamida uch va undan ortiq kishini doimiy ish bilan ta’minlayotgan, ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lgan kichik tadbirkorlik subyektlariga yuz mln so‘mgacha garovsiz kreditlar ajratish taklif etilgan. Ushbu taklif mamlakatimizda kichik biznes subyektlarini kreditlash orqali aholi bandligini ta’minlash imkoniyatlarining yanada kengayishiga hamda kredit tarixi samaradorligini aniqlashga, pirovardida esa tarmoq subyektlarida ishlab chiqarish hajmining ortishiga olib kelmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlari uchun qayta moliyalashtirish stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun 6 oy imtiyozli davr bilan 36 oygacha muddatga revolver kreditlar ajratilgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini shakllantirish sharoitida ularning aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini qondirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, qayta moliyalashtirish stavkasiga nisbatan 4 foiz punkt yuqori stavkada, 6 oylik imtiyozli davr va 36 oygacha muddatga revolver kreditlar ajratish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur mexanizmning uslubiy asosi shundan iboratki, revolver kreditlar tadbirkorlik subyektlariga kredit liniyasi doirasida mablag‘lardan ko‘p martalik foydalanish imkonini yaratadi. Bu esa aylanma mablag‘lar aylanish tezligini oshirish, mavsumiy ishlab chiqarish siklini uzluksiz moliyalashtirish hamda eksport shartnomalarini barqaror bajarishga xizmat qiladi.

Imtiyozli davrning joriy etilishi kredit yukini dastlabki bosqichda kamaytirib, eksportyor korxonalarning pul oqimlarini barqarorlashtiradi. Shu bilan birga, qayta moliyalashtirish stavkasiga nisbatan belgilangan marja banklar uchun muayyan darajada daromadlilikni ta’minlagan holda, kredit resurslarining real sektorga yo‘naltirilishini rag‘batlantiradi.

Ilmiy jihatdan mazkur yondashuv moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, kichik biznes subyektlarining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish hamda ularning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, aylanma mablag‘larning yetarli darajada ta’minlanishi eksport hajmini

1 https://stat.uz/. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

oshirish, mahsulot yetkazib berishda uzilishlarni bartaraf etish va uzoq muddatli tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirish imkonini beradi.

Ushbu mexanizmning joriy etilishi natijasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari eksporti hajmining barqaror oʻsishi, valyuta tushumlarining koʻpayishi va iqtisodiyotda qoʻshimcha qiymat yaratish jarayonlarining faollashuvi kuzatiladi. Shuningdek, mazkur kreditlash instrumenti bank tizimida kredit portfelining diversifikatsiyasi va samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Kichik biznes subyektlariga taqdim etilayotgan eksport oldi moliyalashtirish, ya'ni aylanma mablagʻlar uchun ajratilayotgan kreditlarning 50 foizigacha, biroq summasi 2,5 mlrd soʻmdan oshmagan miqdorida kafillik amaliyoti joriy etilgan boʻlib, ushbu taklif kichik biznes subyektlari faoliyatida eksportning kengayishiga hamda tarmoq subyektlarining moliyaviy barqarorligi ortishiga olib keladi.

Kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini kengaytirishda eksport oldi moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, aylanma mablagʻlarni toʻldirish uchun ajratiladigan kreditlar boʻyicha risklarni kamaytirish va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, kichik biznes subyektlariga ajratilayotgan eksport oldi kreditlarining 50 foizigacha, biroq 2,5 mlrd soʻmdan oshmagan qismi boʻyicha kafillik (garantiya) mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur yondashuvning uslubiy asosi kredit risklarini taqsimlash va kamaytirish tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni, kafillik instituti (davlat yoki maxsus moliyaviy jamgʻarmalar orqali) banklar zimmasidagi kredit risklarining ma'lum qismini oʻz zimmasiga oladi. Bu esa tijorat banklarining kichik biznes subyektlariga kredit ajratishga boʻlgan ishonchini oshiradi hamda kreditlash faolligini ragʻbatlantiradi.

Kafillikning 50 foiz miqdorida belgilanishi bank va kafil institut oʻrtasida risklarni mutanosib taqsimlashni ta'minlaydi. Shu bilan birga, 2,5 mlrd soʻmlik cheklov resurslardan maqsadli va samarali foydalanish, shuningdek, koʻproq kichik biznes subyektlarini qamrab olish imkonini beradi. Bu esa moliyaviy qoʻllab-quvvatlashning adresliligini oshiradi (2-rasm).




2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot eksportdagi hajmi (mln. AQSh dollari)[2]

Mazkur 2-rasmdan mamlakat eksport salohiyatidagi oʻrni oshib borayotganini ham koʻrish mumkin. Kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi oʻrni ham asta-sekin kengayib bormoqda. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, ushbu soha vakillarining mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatidagi tutgan roli ortib bormoqda. Jumladan, tashqi bozordan import qilinayotgan mahsulotlarning katta hajmdagi ulushi ushbu soha vakillari hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Shu oʻrinda aytib oʻtish kerakki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish yoʻliga oʻtkazish orqali uning mamlakat eksporti hajmidagi ulushini ham keskin darajada oshirish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, eksport oldi moliyalashtirishda kafillik mexanizmlarining joriy etilishi korxonalarning pul oqimlarini barqarorlashtiradi, aylanma mablagʻlar aylanishini tezlashtiradi hamda tashqi iqtisodiy shartnomalarni oʻz vaqtida bajarish imkonini beradi. Bu esa, oʻz navbatida, eksport hajmining oʻsishi, valyuta tushumlarining koʻpayishi va tijorat aloqalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Kichik biznes subyektlariga eksport oldi moliyalashtirish doirasida ajratilayotgan aylanma mablagʻlar uchun kreditlarning 50 foizigacha, biroq 2,5 mlrd soʻmdan oshmagan qismi boʻyicha kafillik amaliyotini joriy etish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq va institutsional jihatdan asoslangan mexanizm hisoblanadi. Ushbu yondashuvning ilmiy asosi kredit risklarini diversifikatsiya qilish va moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirish tamoyillariga tayanadi.

2 https://stat.uz/. Oʻzbekiston Respublikasi milliy statistika qoʻmitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Kafillik mexanizmi orqali kredit risklarining bir qismi maxsus institutlar zimmasiga o‘tkazilishi tijorat banklarining kichik biznes subyektlarini kreditlashga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning kredit portfelini kengaytirish imkonini yaratadi. Bu esa moliya bozorida resurslar taqsimotining samaradorligini ta’minlaydi. Uslubiy nuqtayi nazardan, kafillikning 50 foiz darajada belgilanishi risklarni bank va kafil institut o‘rtasida mutanosib taqsimlash imkonini beradi, 2,5 mlrd so‘mlik limit esa moliyaviy resurslarning maqsadli yo‘naltirilishini va ko‘proq subyektlarni qamrab olishni ta’minlaydi. Mazkur parametrlar moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning optimal me’yorlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ushbu mexanizm kichik biznes subyektlarining moliyaviy inklyuziyasini oshiradi, chunki garov ta’minoti yetarli bo‘lmagan yoki kredit tarixi cheklangan tadbirkorlar ham moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish hajmi ortib, tashqi bozorlarda barqaror faoliyat yuritish uchun zarur moliyaviy baza shakllanadi.

Kichik biznes subyektlarini kreditlash tartibini takomillashtirish asosida tarmoq xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2030-yilgacha bo‘lgan istiqbolli statistik prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish iqtisodiy tahlil va strategik rejalashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvning ilmiy asosi kredit-moliya siyosatining real sektor rivojlanishiga ta’sirini iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlash usullariga tayanadi. Ya’ni, kredit resurslaridan foydalanish darajasi, investitsion faollik, aylanma mablag‘lar yetarliligi hamda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari mahsulot ishlab chiqarish hajmini belgilab beruvchi asosiy omillar sifatida qaraladi.

Kreditlash tartibining takomillashtirilishi natijasida kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari kengayadi, bu esa ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, texnologiyalarni yangilash va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada tarmoq xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘sish tendensiyasi shakllanadi.

Uslubiy jihatdan prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda statistik ekstrapolyatsiya, ekonometrik modellashtirish hamda ssenariyli yondashuv usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu usullar orqali kredit resurslari hajmi va ishlab chiqarish dinamikasi o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi aniqlanadi hamda 2030-yilgacha bo‘lgan istiqbolli o‘sish traektoriyalari belgilanadi. Shuningdek, kreditlash tizimini takomillashtirish orqali kichik biznes subyektlarining investitsion faolligi oshadi, ishlab chiqarish zanjirlarida qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari kengayadi va tarmoqlar kesimida iqtisodiy diversifikatsiya kuchayadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini rivojlantirish chora-tadbirlarining samarali amalga oshirilishi yangi ish o‘rinlarini barpo etish asosida ishsizlar sonini qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashga; respublikaning barcha mintaqalaridagi mikromoliyaviy xizmatlarga muhtoj aholini to‘liq qamrab oluvchi mikromoliyalashning zamonaviy tizimini yaratishga; kam ta’minlangan, biroq iqtisodiy faol aholi qatlamini va yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali istiqbolda o‘rta mulkdorlarning keng qatlamini shakllantirishga; tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mikromoliyalash hajmlarini ko‘paytirishga; mikromoliyaviy sektor va uning infratuzilmasini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, davlat tomonidan kichik biznes subyektlarining mahsulotlarini eksport qilish bilan bog‘liq xarajatlarining bevosita va bilvosita subsidiyalanishi ham ularning faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning muhim shakli hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, revolver kreditlash mexanizmining taklif etilayotgan parametrlari kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda innovatsion yondashuv sifatida namoyon bo‘lib, uning amaliyotga joriy etilishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini kengaytirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Eksport oldi kreditlar bo‘yicha kafillik amaliyotini joriy etish kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini barqaror rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali moliyaviy instrument hisoblanadi.

Yakuniy natija sifatida eksport oldi moliyalashtirishda kafillik amaliyotini joriy etish kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtiradi hamda eksport operatsiyalarining uzluksizligini ta’minlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, eksport hajmining o‘sishi, valyuta tushumlarining ko‘payishi va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali moliyaviy instrument sifatida namoyon bo‘ladi.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, kichik biznesni kreditlash tartibini takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari davlat iqtisodiy siyosatini asoslash, tarmoqlar

rivojlanishini rejalashtirish hamda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Binobarin, mamlakatimiz tijorat banklarining kichik biznes faoliyatini mikromoliyalashda yetarlicha rol oʻynamayotganliklaridan dalolat beradi. Bu esa tijorat banklari va kichik biznes subyektlari bilan oʻzaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, mazkur subyektlarni mikrokreditlash tizimini takomillashtirish lozimligini koʻrsatadi. Bu jarayonlarning barchasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat budjeti daromadlaridagi hissasini oshirishga, pirovardida, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishiga hamda barqaror iqtisodiy oʻsishga imkoniyat yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:


1. Adhikari, P., Kuruppu, C., & Matilal, S. (2020). Dissemination and institutionalization of public sector accounting reforms in less developed countries: A comparative study of the Nepali and Sri Lankan central governments. Accounting Forum, 37(3), 213-230.
2. Agostino, D., Saliterer, I., & Steccolini, I. (2024). Artificial intelligence in the public sector: A systematic literature review and future research agenda. Public Administration Review, 84(1), 76-91.
3. Argento, D., Peda, P., & Grossi, G. (2022). International collaboration in public sector accounting research: A bibliometric analysis. Accounting, Auditing & Accountability Journal, 35(4), 905-932.
4. Mustafakulov, O. (2024). STATISTIKA TIZIMDA RAQAMLI PLATFORMALARNING QO ʻLLANISHI: XALQARO TAJRIBALAR. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (7), 184-195.
5. Bisogno, M., Citro, F., & Santis, S. (2023). Determinants of the reliability of financial reporting in Italian local governments: An empirical analysis. International Journal of Public Administration, 46(2), 136-150.
6. Ferry, L., & Ahrens, T. (2021). The future of the public sector accounting research: An introduction. Accounting, Auditing & Accountability Journal, 34(7), 1507-1514.
7. Ferry, L., Zakaria, Z., & Eckersley, P. (2022). Accountability and control in UK local government: A case study of internal control systems. Financial Accountability & Management, 38(1), 95-116.

# YASHIL

**IQTISODIYOT&TARAQQIYOT**

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5 (2)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz